

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AUDIT TIZIMINI JAHON TAJRIBASI ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI

O'taganov Alisher

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. Rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya) va rivojlanayotgan davlatlar (Rossiya, Xitoy, Gruziya) audit tizimlari tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari o'rganiladi. O'zbekiston uchun xalqaro standartlarni joriy etish, regulyativ nazoratni kuchaytirish, auditorlarning kasbiy malakasini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: audit tizimi, xalqaro tajriba, xalqaro audit standartlari, moliyaviy hisobotlar, auditorlarning mustaqilligi, shaffoflik, regulyativ nazorat.

Kirish

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotning ishonchligi, shaffofligi va haqqoniyligi nafaqat korxonalar va investorlar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Jahon miqyosida iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borar ekan, korxonalar faoliyatining ochiqligi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelishi va audit tizimining samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Audit tizimi korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini mustaqil ravishda baholash, xatolik va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish orqali moliyaviy boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, audit investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish, xalqaro standartlarni joriy etish va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy talablar va xalqaro amaliyot printsiplariga asoslangan auditorlik faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish, qoida va normalarni hamda me'yoriy hujjatlarni yagona normativ-huquqiy hujjatda unifikatsiyalash va tizimlashtirish maqsadida 2021-yil 25-fevralda yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bozor iqtisodiyoti

talablariga javob beradigan auditorlik xizmatini tashkil etishga, ushbu kasbning nufuzini va ular ishining sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, pirovard natijada jamiyat manfaatlarini qondirishga va investorlar himoyasini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida audit tizimini rivojlantirish va xalqaro tajribaga moslashtirish, mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi vashaffofligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Audit tizimi, shuningdek, moliyaviy va korporativ sektorlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, bu esa jahon moliya bozorlariga integratsiyalashuv jarayonida alohida ahamiyatga ega. Xalqaro tajribani o'rganish va ulardan o'rganish, O'zbekiston uchun audit tizimini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Jahon moliya bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar, shuningdek, bu sohadagi qonunchilikdagi yangiliklar audit tizimini yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolar va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi, jumladan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash, auditorlik faoliyatini qat'iy tartibga solish, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash masalalari turadi. Yevropa Ittifoqida esa, auditorlik faoliyatini tartibga solishga doir direktivalar va reglamentlar mavjud. Ushbu hujjatlar asosida auditorlik firmalariga qo'yiladigan talablar, audit jarayonining standartlari va auditorlarning kasbiy etikasi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Osiyo va Tinch okeani audit tizimlari bo'yicha ham qiziqarli tajribalar mavjud. Masalan, Janubiy Koreyada yirik korporativ guruhlariga qo'yiladigan qat'iy audit talablari, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tajriba O'zbekiston uchun korporativ boshqaruvni takomillashtirish borasida foydali bo'lishi mumkin. Xalqaro audit standartlarini joriy etish, audit tizimining mustaqilligini ta'minlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, malakali auditorlar tayyorlash va ichki audit tizimlarini kuchaytirish kabi choralar, O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuviga yordam beradi. Dunyoda auditorlik xizmatlaridan foydalanish rivojlanib boryapti. Xususan, IFAC – Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining rasmiy hisobotiga ko'ra, 130 ga yaqin davlatda 175 dan ziyod professional buxgalterlar uyushmasi, 3 milliondan ziyod professional auditor, 100 mingdan ortiq auditorlik tashkiloti mavjud. Birgina Deloitte tashkilotining o'zi 150 ta davlatda 1600 dan ziyod shartnoma asosida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazib, 46,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi daromadni qayd etdi. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, auditor malaka sertifikatini dastlab besh yillik muddatga berish, uning amal qilishini navbatdagi o'n yillik muddatga va keyinchalik muddatsiz davrga uzaytirishni nazarda tutuvchi normalar kiritildi. Bu hujjatni olish uchun talabgor oliy ma'lumotga hamda oliy ta'lim tashkilotini tamomlaganidan keyin oxirgi o'n yildan kamida uch yil buxgalteriya hisobi va audit sohasida ish stajiga ega bo'lishi lozim. Xalqaro buxgalter sertifikatiga yoki kamida o'n yillik uzluksiz auditorlik ish stajiga ega bo'lgan auditorlarga malaka sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish imtihon topshirmasdan amalga oshiriladi.

Banklarning tashqi auditorlar tomonidan tekshirilishi va moliyaviy hisobotning ishonchliligi bozor iqtisodiyoti sharoitida har tomonlama ishonchli bank xizmatining mavjudligini ko'rsatib beruvchi omillardandir. Bu borada bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tashqi auditga oid talablar va bank nazoratiga oid standartlarni ishlab chiqishi, SWOT tahlili, CAMEL reyting, BOPEC – the Feds Bhs rating system, milliy reyting agentligi “Axbor-reyting” kabi banklarning reytingini aniqlovchi turli mezonlarning yaratilganligi bank tizimidagi faoliyat va uning moliyaviy hisobotining shaffofligi muhimligini ko'rsatadi. Har bir bank uning yillik moliyaviy hisobotining natijasiga qarab, reyting qilinadi va bunda auditorlik xizmati va tekshiruvining ahamiyati va roli kattaligi ayondir. Shu jihatdan ham bank va banklar guruhi auditorlik tekshiruvining maqsadi amaldagi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari hamda moliyaviy hisobotlarga oid xalqaro standartlarga muvofiqligini, bankning moliyaviy axboroti hamda boshqa moliyaviy ma'lumotlari to'g'riligini aniqlashdan iborat bo'lishi lozim. Xalqaro auditorlik kompaniyalari (Deloitte “Optix” analitik dasturi, KPMG “Watson”, “Clara” smart audit platformasi, shuningdek, Microsoft Excel bilan birgalikda SAAT, GAS, ASL, Outlier Analysis, Benfords Law Analysis dasturlari) faoliyatida keng qo'llanayotgan dronlar, raqamli audit, data mining, audit operatsiyalarini robotlashtirish, blokcheyn, suniy aql, analitik dasturlar kabi ilg'or texnologiyalar va ularning auditorlik tekshiruvlaridagi samaralari o'rganilib, milliy auditorlik tashkilotlari amaliyotida ulardan foydalanish mumkin

Xulosa. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida audit tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu nafaqat moliyaviy axborotning ishonchliligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Shu sababli, davlat organlari, auditorlik tashkilotlari va korxonalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Takliflar: O'zbekiston Respublikasi uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Xalqaro standartlarni joriy etish: Xalqaro Audit Standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish va xalqaro investorlarga ishonch yaratish.

2. Regulyativ organlarni mustahkamlash: Audit faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil regulyativ organlarni tashkil etish yoki mavjudlarini mustahkamlash, ularning samaradorligini oshirish

3. Auditorlarning mustaqilligini ta'minlash: Auditorlarning mustaqilligini qonunchilik bilan mustahkamlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun qat'iy qoidalarni joriy etish

4. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Auditorlarni xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishlarini rag'batlantirish, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, xalqaro tajriba almashinuvini tashkil etish.

5. Shaffoflikni oshirish: Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish uchun korporativ boshqaruv me'yorlarini joriy etish, bu esa investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Askarov, Jaloliddin. "Theoretical and legal aspects of audit activity in Uzbekistan" Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.8 (2022): 234–240.
2. K. Axmedjanov, I. Yakubov. Audit asoslari. Darslik. Toshkent. – 2010-y. – 91-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021-y., 03/21/677/0155-son. <https://lex.uz/docs/5307886>
4. X.X. Saydivaliyeva. "Auditorlik faoliyatini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish", ... Avtoreferat. – Toshkent, 2020. – 12-b.
5. Jumagulov A.E. "Stages of development of the legislation on investment funds in Uzbekistan" Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka 1.5 (2021).
6. Alisher, Jumagulov "Investment Funds in Uzbekistan: Legal Analysis". The American Journal of Political Science Law and Criminology 2.09 (2020): 87–98. <https://www.naab.uz> (O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy asosiatsiyasining rasmiy sayti)
7. <https://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Statistika qumitasining rasmiy sayti)
8. <https://www.uzaudit.uz>. (O'zbekiston Respublikasi Auditorlar palatasining rasmiy sayti)